

O'ZBEKISTONDA YOSHLAR ORASIDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATI

Hasanov Sherzod Abdirashid o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti

“O'zbekiston tarixi kafedrası” 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15249132>

Annotatsiya. Bugungi kunda mamlakatimizda jinoyatga jazo berish shuningdek ko'plab huquqbuzarliklar uchun jazolar yengillashtirilmoqda. Chunki jazodan maqsad shaxsni, xususan yoshlarni jamiyatdan ajratib qo'yish emas, aksincha, uni qayta tarbiyalab jamiyatga qaytarish hisoblanadi. Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar orasida jinoyatchilikni oldini olish borasida olib borilayotgan davlat siyosati, amaliy ishlar hamda tadbirlar to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: Tarbiya, jinoyatchilik, profilaktika, Yoshlarga oid davlat siyosati, yangi Konstitutsiya, qonunchilik, voyaga yetmaganlar, “Xavfsiz xonadon” va “Xavfsiz hovli” tizimi, huquqbuzarlik.

STATE POLICY ON PREVENTING YOUTH CRIME IN UZBEKISTAN

Abstract. Today in our country, punishment for a crime is being relaxed, as well as penalties for many offenses. Because the purpose of punishment is not to isolate the individual, in particular young people, from society, but rather to re-educate him and return him to society. In this article, information about the state policy, practical work and activities carried out in our country to prevent crime among young people was cited.

Key words: Upbringing, crime, prevention, youth Public Policy, new Constitution, legislation, minors, “safe house” and “safe yard” system, infraction.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ПО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЮ ПРЕСТУПНОСТИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Абстрактный. Сегодня в нашей стране смягчаются уголовные наказания, а также наказания за многие правонарушения. Потому что цель наказания — не изолировать человека, особенно молодого, от общества, а перевоспитать его и вернуть в общество. В статье представлена информация о государственной политике, практической работе и мероприятиях, которые проводятся сегодня в нашей стране по профилактике правонарушений среди молодежи.

Ключевые слова: Образование, преступность, профилактика, государственная политика в отношении молодежи, новая Конституция, законодательство, несовершеннолетние, системы «Безопасный дом» и «Безопасный двор», правонарушения.

Kirish

Yoshlarni to'g'ri tarbiyalash bugungi globallashtirish, suniy intellekt tobora rivojlanib borayotgan davrning asosiy masalalaridan biri bo'lib bormoqda.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov: "Adolat g'oyasi – jamiyat hayotining har bir sohasini qamrab olishi zarur, qonunchilikning har bir sohasi shakllanishi, davlat va fuqaro munosabati, mehnat va uy-joy, nafaqa va soliq, tabiatni muhofaza qilish va jinoiy javobgarlik ushbu g'oya bilan boshlanib, ushbu g'oya bilan tugallanishi kerak"¹ deb yozgan edi. Shubhasiz, bu fikrda adolat ustuvorligi qonun ustuvorligining muhim sharti ekanligiga e'tibor qaratilgan.

Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunga muvofiq 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari yoshlar deb ataladi. Shuningdek 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan oila yosh oila deya e'tirof etiladi. Bu yoshlarga berilgan ta'rif ko'rinib turibdiki voyaga yetmaganlar ham yoshlar tarkibiga kirib ketadi.

Yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlari haqida gapirishdan oldin jadid ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" deya aytib o'tgan so'zlarini eslashimiz lozimdir. Chunki yoshlarning jinoyatga qo'l urishi tarbiyada yo'q qo'yilgan xato va kamchiliklar, befarqlik va ma'suliyatsizlarning natijasi sifatida yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida 2017-yil 15-noyabr kuni mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida belgilangan vazifalar ijrosi, bu borada mavjud muammolar hamda ularni hal qilish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida 2017-yilning 10 oyi davomida yurtimizda 22 ming nafar yosh jinoyatga qo'l urgani, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari tomonidan 875, maktab o'quvchilari tomonidan 310 og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etilgani qattiq tanqid qilindi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida asosan O'zbekiston respublikasining jinoyat kodeksining 169-moddasida ko'rsatilgan o'g'rilik jinoyatlari sodir etish ko'plab uchrayapti. Yana shu moddada ko'rsatilgan talonchilik jinoyatlari, ya'ni ko'cha-ko'yda fuqarolarning qimmatbaho buyumlarini, taqinchoqlarini talonchilik yo'li bilan olib ketish kabi jinoyatlar ko'plab uchrayapti. Bu jinoyatlarning eng ko'p uchrashiga sabab, mana shu yoshlarning o'rtasida hozirgi paytda bo'sh yurganlar, o'qishga bormasdan, o'qishni bitirgandan keyin ish topolmasdan yoki oliy yoki boshqa o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirish uchun imkoni bo'lmagan shaxslar, ko'proq mana shunday bekorchi yurgan yoshlar tomonidan jinoyatlar sodir etilyapti"²

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиқлол, шқтисод, сиёсат ва мафкура. – Тошкент: 1996. – Б. 67.

² https://www.gazeta.uz/uz/?utm_source=redirect&utm_medium=domain

deya gezeta.uz saytiga interviyu bergan advokat B.Shohnazarov.

Shu o'rinda yoshlar va voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning sabablarini quyidagi omillarda ko'rishimiz mumkin:

- oilada, mahallada hamda ta'lim muassasalarida voyaga yetmaganlar ularni yurish-turishi ustidan qat'iy nazoratni yetarli darajada olib borilmayotganligi;
- oiladagi salbiy muhitni farzandga ta'siri;
- internetdagi turli shaxvoniy, zo'rlikni va vaxshilikni targ'ib qiluvchi yoshlar ruhiyatiga salbiy ta'sir qiluvchi saytlarning ochiqqligi va nazoratsiz foydalanish imkoni borligi;
- aksariyat voyaga yetmaganlarda badiiy asarlarni o'qishga qiziqish yo'qligi;
- otani, ayrim hollarda ota va onaning ham uzoq muddatga chet davlatlariga pul ishlash uchun ketib, farzandlarining qarovsiz qolishi. Shu va shunga o'xshash holatlar natijasida yoshlar jinoyatchilikka qo'l urayotganliklarini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, voyaga yetmagan shaxslar uchun ham jazo choralari belgilab qo'yilgan bo'lib unga ko'ra, 13 yoshdan so'ng shaxs qilgan jinoyati uchun javobgarlikka tortiladi. Shu bilan birga avvalo ular uchun 18 yoshga to'lgunga qadar otalar mas'ul hisoblanadi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, 18 yoshga to'lmagan shaxslar jinoyat sodir qilganda jarima, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish kabi jazolar qo'llanilishi mumkin. Bulardan tashqari qo'shimcha jazo turlari qo'llanilishi mumkin emas.

Yoshlar jinoyatchiligining xususiyatiga qarab jazo choralari qo'llaniladi. Jazoning asosiy maqsadi shaxsni jismonan sindirish, emas aksincha yana qayta jinoyat sodir etishdan qaytarish hisoblanadi. Shuningdek sodir etgan qilmishi qanchalik yomonligini uqtirish hamda uni qayta tarbiyalash masadida qo'llaniladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jinoyatga jazo berish shuningdek ko'plab huquqbuzarliklar uchun jazolar yengillashtirilmoqda. Chunki jazodan maqsad shaxsni, xususan yoshlarni jamiyatdan ajratib qo'yish emas, aksincha, uni qayta tarbiyalab jamiyatga qaytarish hisoblanadi. Buning ilk ko'rinishini biz 2008-yilda O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosining bekor qilinishi, shuningdek, 2015-yilda qamoq jazosi chiqarib yuborilib o'rniga ozodlikni cheklash jazosi qo'llanilishi belgilab qo'yilganida hamda keyingi islohotlarda ko'rishimiz mumkin³. O'zining ko'plab nutaqlari va jamoat faollari bilan uchrashuvlarida Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev "Konstitutsiya hamda qonunlarga kiritilayotgan har qanday o'zgarishlar shaxs manfaati hamda uning kelajagi uchun xizmat qilishi lozim" deya ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar jinoyatchiligini olish bo'yicha ko'plab tadbirlar

³ Egamberdiyev A.R., B.J.Axrarov Jinoyat huquqi. Darslik. – Toshkent: 2017.

amalga oshirilmoqda. Davlatimiz hukumati tomonidan qonun, qaror hamda farmonlar qabul qilinmoqda.

O'zbekistonda qabul qilingan yoshlarga oid normativ-huquqiy hujjatlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

Birinci guruh 1991-2000 yillarda qabul qilingan qonun hujjatlarini kiradi. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonun (1991-y); "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonun" (1992-y); "Ta'lim to'g'risidagi qonun", Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997-y).

Ikkinchi guruhga 2001 – 2015-yillar mobaynida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mansub bo'lib, ularga "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (2008-y); "Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi (2009-y) qaror va farmonlar mansubdir.

Uchinchi guruhga 2016-yildan keyin qabul qilingan hujjatlar kiradi. Masalan, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi (2016-y), "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-4944-son (2017-y); "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" PQ-2833-son (2017)⁴ va boshqalarni keltirishimiz mumkin

Voyaga yetmagan shaxslar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, bu yo'nalishda mas'ul bo'lgan davlat idoralari, jamoat tashkilotlari hamda yoshlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish va yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-son qarori bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar etib qayta tashkil etilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar jinoyatchiligini oldini olish bo'yicha profilaktik chora tadbirlar hamda anjuman uchrashuvlar tashkil etilmoqda. Shulardan biri 2018-yil 4-dekabrda Toshkent shahridagi Yoshlar ijodiyoti saroyida "Mamlakatimizda yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishning dolzarb masalalari va kelgusidagi vazifalar" mavzusida respublika amaliy anjumani bo'lib o'tdi. Anjumanda O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda 2018-yilda jinoyatchilikni oldini olish va huquqbuzarliklar

⁴ Qodirov E. Yoshlar jinoyatchiligini oldini olish masalalari. – Toshkent: Nishon noshir, 2017. – B. 43-45.

profilaktikasi borasida bajarilgan ishlar, bu borada yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar sarhisob qilindi. Eng ko‘p jinoyatlar sodir etilgan viloyatlarda ishlar samaradorligini yanada oshirish zarurligi ta’kidlandi. Amaliy anjuman davomida jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha bajarilgan ishlar tanqidiy tahlil etildi. Ma’ruzachilar tomonidan Andijon, Navoiy hamda Toshkent viloyatlarida ishlar samaradorligini yanada oshirish zarurligi ta’kidlab o‘tildi. Shuningdek, mamlakatimizda xotin-qizlar o‘rtasida salbiy holatlarning oldini olish borasidagi amalga oshirilgan ishlar va rejalashtirilgan chora-tadbirlar, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning ahamiyati, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishdagi yutuq va kamchiliklar, ma’naviy tahdidlarning o‘zaro ta’siri orqali sodir etilayotgan salbiy holatlar yuzasidan ma’ruzalar tinglandi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2018-yil mobaynida 386 nafar yoshlar “Yoshlar kafilligi” asosida sud zalidan ozod qilingan.

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 2-aprelidagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan bevosita joylarga chiqqan holda profilaktika inspektorlari tomonidan har bir oila va xonadondagi muhit, shuningdek, huquqbuzarliklar sodir etilishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy infratuzilma va boshqa muammolarni o‘rganish hamda bartaraf etish bo‘yicha “Xavfsiz xonadon” va “Xavfsiz hovli” tizimi yo‘lga qo‘yilgan⁵. Buning asosida jamiyatning eng nozik bo‘g‘ini bo‘lgan yoshlarning jinoyatchilikka nisbatan moyilligini oldini olish, bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni tubdan takomillashtirish yotadi.

Tadqiqot natijalari tahlil qilinganida o‘quvchilar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning aksariyati darsdan keyin yoki kechki paytga to‘g‘ri kelayotgani va ular asosan notinch oilalar farzandlari ekanligini kuzatish mumkin. Maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar asosan ota yoki onaning (ayrim holatlarda ikkalasi ham) xorijga mehnat muhojirligiga chiqib ketishi natijasida farzandlarining nazoratsiz qolishi, oilaviy kelishmovchilik va ajralishlar, ayrim ota-onalarning ichkilikka ruju qo‘yganligi tufayli farzandlar tarbiyasiga e’tiborsizlik, o‘quvchilarning katta yoshdagi huquqbuzarlar ta’siri doirasiga tushib qolishi yoki maktablar bilan fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlarining hamkorligi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi, mas’ullarning profilaktik nazoratga olingan o‘quvchilar bilan yakka tartibda to‘liq shug‘ullanmasligi kabi omillar sabab bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning jinoyat yo‘liga kirib qolishlari sabablarini o‘rganish uchun o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, umumiy hisobda respondentlarning

⁵ Камолова М.А. Вояга етмаганларда хулқ оғишининг ижтимоий психологик сабаблари ва шароитлари. // Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги академиясининг Ахборотномаси. 2021 йил, 3-сон. – Б. 133.

taxminan 20 foizi – ota-ona, 15 foizi – maktab, 10 foizi – ichki ishlar organlari, 15 foizi esa televideniye, videoni aybdor, deb javob berganlar. Vaholanki, 71,7 foiz hollarda – voyaga yetmaganlarning ota-onalari, do'stlari, 35,6 foiz xollarda – o'qituvchilar, 17,9 foiz xollarda – mahalla qo'mitalari, 30,7 foiz xollarda – qo'ni-qo'shnilar ularning yomon ishlar bilan shug'ullanayotganliklarini bilganlar⁶.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi vatqda voyaga yetmagan qizlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar miqdori voyaga yetmaganlar jinoyatlari tarkibida 2-2,5 marta ko'paygan. Jumladan, har uchta fohishadan ikkitasi voyaga yetmagan qizlardir. Shuningdek, voyaga yetmagan qizlar ko'pchilik jinoyatlarning sodir etilishida yo'naltiruvchi, o'g'rilik, talonchilik, ta'magirlik, firibgarlik, xatto odam o'ldirish jinoyatlarida esa ishtirokchi sifatida qatnashgan⁷.

O'zbekistonda yoshlar va voyaga yetmagan bolalar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish maqsadida ichki ishlar organlari va mahalla o'rtasidada hamkorlik ishlari ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, aholi turar joylarida yoshlarning jinoyat sodir etilimasligi bo'yicha yaxshi natijalar bermoqda. Xususan, jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar 2002-yilda 8314 tani tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2003-yilda 3 foizga, 2004-yilda 5 foizga, 2006-yilda 1 foizga, 2007-yilda 6,1 foizga va 2008-yilda 6,7 foizga kamayganini ko'rish mumkin.

Shuningdek, yoshlar va voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 2002-yilda 2883 tani tashkil qilib, 2003-yilda ushbu ko'rsatkich 0,8 foizga oshgan bo'lsa, 2004-yilda 2,7 foizga, 2005-yilda 8,4 foizga, 2006-yilda 3,2% foizga va 2008-yilda 5,4 foizga kamaygan. Jinoyat sodir etgan yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovlarga ko'ra, ularning 28,7 foizi asosiy vaqtini videobarlarda filmlar tomosha qilish, 12,8 foizi qarta va qimor o'ynash, 35,8 foizi spirtli ichimliklar, narkotik moddalar iste'mol qilish, 36,8 foizi ko'cha va bozorlarda sang'ish bilan o'tkazganlar. Voyaga yetmaganlarning 14,3%i spirtli ichimliklarni oilada, 5,4 foizi maktabda yoki ishda, 46,8 foizi dam olish maskanlarida, 33,6 foizi boshqa joylarda, 6,1 foizi 11-13 yoshida, 10,1 foizi 14 yoshida, 22,2 foizi 15 yoshida, 30,3 foizi 17 yoshida iste'mol qilganliklari aniqlangan⁸.

Biroq shu o'rinda ta'kidlash lozimki, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlarini, erkinliklarini hamda manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar bilan birga, mazkur sohada ayrim muammolar xali ham saqlanib qolayotganini hech birimizga sir emas. Olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, afsuski mamlakatimizda yoshlar, ya'ni 30

⁶ Зарипов З.С. Вояга етмаганларнинг гуруҳий жиноятчилиги ва унинг олдини олишга қаратилган айрим чоралар // Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши кўраш фаолиятини такомиллаштириш. – Тошкент: 2001. –Б. 18.

⁷ Vasiyev S. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olish profilaktikasi yoxud muassasalar hamkorligi. / "Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya" nomli ilmiy-amalaiy konferensiya. – Qarshi. 2021. – B. 451.

⁸ Кодиров Қ.Б. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда ички ишлар идораларининг фаолияти (1991-2011 йиллар). Тарих фан. бўйича фалсафа док. Дисс (PhD). – Тошкент: 2019. – 138 б.

yoshgacha bo'lganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar miqdori oshib bormoqda, xususan 2020-yilda respublikamiz miqyosida 62 081 ta jinoyat qayd etilgan bo'lib, bu har 100 ming aholiga nisbatan o'rtacha 182,4 tadan to'g'ri keladi. 2020-yilda respublikamizda qayd etilgan har to'rtinchi jinoyat (14378 ta yoki 23,2 foiz) yoshlar tomonidan sodir etilgan. Shundan 4 052 nafari – ish bilan band bo'lmagan yoshlardir. Ayniqsa, yoshlar orasida guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 28,5 foizga, mast holda 98,6 foizga, retsdiv jinoyatlar 61,1 foizga, qizlar tomonidan 5,9 foizga, oliy o'quv yurti talabalari tomonidan 36,8 foizga, ishlaymaydigan va o'qimaydigan yoshlar tomonidan 22,5 foizga ko'paygan. Yoshlar psixologiyasiga xos bo'lgan yana bir xislat mavjudki, buni bir so'z bilan “kam mehnat qilib, eng yuqori natijani kutish” deb ta'riflash, aslo xato bo'lmaydi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan “intilish” aslida bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan dunyoning asosiy maqsadi bo'lsa-da, lekin bu maqsadga insoniyatning qanday yo'llar bilan erishayotganligi doimo diqqat markazimizda bo'lishi kerak. Chunki bugun kam mehnat bilan qo'lga kiritilayotgan “natijalar”ning aksariyat qismiga narkobiznes, odam savdosi, qurol-yarog' savdosi, kriptovalyuta, shahvoniy ekspluatatsiya kabi jamiyat taraqqiyotining kushandasi bo'lmish eng og'ir ijtimoiy xavfli qilmishlar orqali erishilayotganligi ayni haqiqatdir⁹.

Mamlakatimizning barcha hududlarida xalq osoyishtaligini ta'minlash xususan yoshlarning jinoyatchiligiga qarshi kurash, ularni diniy ekstremistik oqimlarga jalb qilishga urunuvchi shaxslarni aniqlash hamda yoshlar va voyaga yetmaganlar bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni olib boorish maqsadida ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda mahalla posbonlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

“Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurash va ularning oldini olish ishlariga nafaqat ichki ishlar organlari va mahalla balki O'zbekistonning barcha fuqarosi birdek ma'sul. Jinoyatni aniqlash, uning negizini topish, huquqbuzarliklarning oldini olish, uni jilovlash mutasaddilarning eng asosiy vazifasidir” - deb, ta'kidlaydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yoshlar va voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning 32 foizi o'g'rilik va firibgarlik hisoblanadi. Ushbu toifadagi jinoyatlarning eng ko'pi Toshkent shahri va Farg'ona viloyatida qayd qilingan¹⁰. Bugungi kunda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon qilish, ularning fuqarolik javobgarligini va olib borilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini oshirish borasida bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi

⁹ Каршиев Ф.С. Ёшлар жиноятчилигининг олдини олиш масалалари. // Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги академиясининг Ахборотномаси. 2021 йил, 2-сон. – Б. 133.

¹⁰ [Yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga barchamiz birdek mas'ulmiz](#)

faoliyatni muvofiqlashtirish, ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish darkor.

REFERENCES

1. Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиқлол, шқтисод, сиёсат ва мафкура. – Тошкент: 1996. – Б. 67.
2. Egamberdiyev A.R., B.J.Axrоров Jinoyat huquqi. Darslik. – Toshkent: 2017.
3. Qodirov E. Yoshlar jinoyatchiligini oldini olish masalalari. – Toshkent: Nishon noshir, 2017. – B. 43-45.
4. Камолова М.А. Вояга етмаганларда хулқ оғишининг ижтимоий психологик сабаблари ва шароитлари. . // Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги академиясининг Ахборотномаси. 2021 йил, 3-сон. – Б. 133.
5. Зарипов З.С. Вояга етмаганларнинг гуруҳий жиноятчилиги ва унинг олдини олишга қаратилган айрим чоралар // Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши кўраш фаолиятини такомиллаштириш. – Тошкент: 2001. –Б. 18.
6. Vasiyev S. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olish profilaktikasi yoxud muassasalar hamkorligi. / "Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya" nomli ilmiy-amalayi konferensiya. – Qarshi. 2021. – B. 451.
7. Қодиров Қ.Б. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда ички ишлар идораларининг фаолияти (1991-2011 йиллар). Тарих фан. бўйича фалсафа док. Дисс (PhD). – Тошкент: 2019. – 138 б.
8. Қаршиев Ғ.С. Ёшлар жиноятчилигининг олдини олиш масалалари. // Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги академиясининг Ахборотномаси. 2021 йил, 2-сон. – Б. 133.
9. [Yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga barchamiz birdek mas'ulmiz](#)
10. https://www.gazeta.uz/uz/?utm_source=redirect&utm_medium=domain